

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ ZB68483145

1. Loyihaning turi

Shartnoma

2. Loyihaning nomi

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

**Baliqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan
24.01.2022-yil.**

4. Mas'ul ijrochi

Baliqchi tuman adliya bo'limi huzuridagi davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 2022-yil 24-yanvar kuni "E-Huquqshunos" elektron tizimi orqali Baliqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan internet tarmog'iga ulunish bo'yicha haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi loyihasi ekspertizadan o'tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan. Shartnomani o'rganish davomida quyidagilar aniqlandi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandiga asosan *avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinishi* belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA QILAMAN:

Baliqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan internet tarmog'iga ulunish bo'yicha haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksining 26-bob Shartnoma tushunchasi va shartlari talablariga, 38-bob Haq evaziga xizmat ko'rsatish talablariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori talablariga muvofiqligi inobatga olinsin.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i:**



24.01.2022

J.Nazarov